



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>Феруз Нематуллаевич Абилов</b> Қишлоқ ҳудудларида агросервис хизматларини кўрсатувчи инсон ресурслари фаолиятини такомиллаштириш	69
<b>Нажмиддин Раҳматуллаевич Абдувоҳидов</b> Хизмат кўрсатиш соҳасида иш ўринларини яратишда сохта иқтисодиёт ва уни баргараф этишнинг амалий йўналишлари	74
<b>Мурод Нозирович Ибрагимов</b> Перспектива развития услуг по внедрению стандартов GxP в Узбекистане	79
<b>Рустам Алижонович Мусабоев</b> Подходы к стратегическому планированию развития сферы бытовых услуг республики узбекистан	84
<b>Ulug'bek Ziyadullayevich Narmurodov</b> Pochta va kuryerlik xizmat ko'rsatishni rivojlantirish holati va tahlili (Samarqand viloyati misolida)	88
<b>Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев</b> Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналар самарадорлигини баҳолашни ва таҳлил қилиш усуллари такомиллаштириш	94
<b>Shohina Xujmaxmatovna Pirova</b> Ichimlik suvi ta'minotini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	98
<b>Nodira Abdullayevna Eshquvvatova</b> Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash	102
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Юлдуз Пирназаровна Урунбаева</b> Ўзбекистонда музей туризмни бозорини ривожлантириш йўллари	107
<b>Дилбар Хасановна Асланова, Маликабону Фуркатовна Раупова</b> Совершенствование организационно-экономического механизма развития малого гостиничного бизнеса	113
<b>Темурбек Бобурмирзо ўғли Саломов</b> Зиёрат туризмида кўрсатиладиган хизматлар турларини ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари ва тавсифи	116
<b>Райхона Садриддиновна Амриддинова</b> Ребрендинг как стратегический инструмент повышения конкурентоспособности гостиничных предприятий	121
<b>Ikrom Abdurashitovich Shukurov</b> Turizm sohasining barqaror rivojlantririshda ekonometrik modellashtirishning xorij tajribasi	124
<b>Sarvar Adxamovich Abduxamidov</b> Turistik mintaqalar: ularni tashkil qilish va rivojlantirishda rayonlashtirish xususiyatlari	130
<b>Дониёр Журакулович Абдуразаков</b> Туризм қишлоғи концепцияси ва унинг назарий-илмий тавсифлари таҳлили	135
<b>Mekhruza Sukhrobjon qizi Vafokulova</b> The role of family-owned businesses in the sustainable development of tourism in Samarkand	138
<b>Diyora Narzieva</b> Modern approaches to the development of cultural tourism	144
<b>Sadoqat Quدراتовна Bultakova</b> Xizmatlar sohasini diversifikatsiyalashning Yaponiya tajribasi	150

- heritage and tourism. 978-1-84541-772-7 and doi:10. 21832/9781845417727 are the links to Teaching Cultural Responsiveness. . discovered on 26 April 2023.
20. Perspektivy razvitiya turisticeskogo p otenciala\_uzbekistana ([https://www . researchgate . net/publication/347169692](https://www.researchgate.net/publication/347169692)).
21. [http://www . uzbekistan . org . ua/ru/news/3153-razvitiie-turizma-v-uzbeke](http://www.uzbekistan.org.ua/ru/news/3153-razvitiie-turizma-v-uzbeke)
22. [html. http://www. development-of-tourism at un . int/uzbekistan/news](http://www.development-of-tourism.at.un.int/uzbekistan/news).

<p style="text-align: center;"><b>D. Narziyeva</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Madaniy turizmni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari</b></p> <p><b>Annotatsiya.</b> Ushbu maqola madaniy turizmni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qiladi. Turizm tushunchasi turlicha talqin qilinishi sababli uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati turli jihatlarda o'rganiladi. Maqolada turizm tizimi va uning o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar, yangi tashabbuslar – sayohat manzillari, keluvchi sayyohlar demografiyasi, kosmik turizm imkoniyatlari, internet xaritalari va iqlim o'zgarishlarining turizm jarayoniga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, Yevropa, Afrika va Lotin Amerikasidagi amaliy tadqiqotlar, boshqaruv, iqtisodiy rivojlanish, sport turizmi, mehmonxona sanoati va tarixiy obidalarni tiklash kabi tajribalar tahlil qilingan.</p> <p><b>Kalit so'zlar:</b> turizm rivojlanishi, barqaror turizm, sayyohlar demografiyasi, kosmik turizm, iqlim o'zgarishi, turizmدا innovatsiyalar va madaniy meros.</p>	<p style="text-align: center;"><b>Д.Нарзиева</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Современные подходы к развитию культурного туризма</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье анализируются современные подходы к развитию культурного туризма. Поскольку понятие туризма трактуется по-разному, рассматриваются его социальное, экономическое и культурное значение. В статье освещаются система туризма и факторы, влияющие на его развитие, новые инициативы — туристические направления, демография прибывающих туристов, возможности космического туризма, использование интернет-карт и влияние климатических изменений на туристические процессы. Также проведён анализ практических исследований в Европе, Африке и Латинской Америке, включая вопросы управления, экономического развития, спортивного туризма, гостиничной индустрии и восстановления исторических памятников.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> развитие туризма, устойчивый туризм, демография туристов, космический туризм, изменение климата, инновации в туризме и культурное наследие</p>
--	--

Sadoqat Qudratovna Bultakova – SamISI doktoranti

### XIZMATLAR SOHASINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING YAPONIYA TAJRIBASI

<p><b>Annotatsiya.</b> Maqolada Yaponiyada xizmatlar sohasining rivojlanganligi, uning diversifikatsiyasi qanday amalga oshirilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Yaponiyada qanday xizmat turlarining rivojlanganligi tahlili, “Konbini” do'konlar, radiochastotali identifikatsiyalash sotuv tizimi va tibbiyotda robotlashtirilgan jarrohlik tizimlarining yo'lga qo'yilganligi bilan mashhurligi haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek; savdo do'konlari va supermarketlarda chiptalar sotuvi yo'lga qo'yilganligi, energiya olishning noodatiy tarzlari haqida maqolada yoritilgan.</p> <p><b>Kalit so'zlar:</b> choy marosimi, Konbini, elektron tijorat, “Da Vinchi” roboti, “Hinotori” roboti, fintech xizmatlari, avtomatlashtirilgan parkovka.</p>
---

**Kirish.** Yaponiya iqtisodiyoti 1980-yildan boshlab rivojlanib bordi. Xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish uchun esa o'z strategiyalarini qo'lladi. Unga ko'ra Yaponiyada tug'ilishning kamligi va asosan aholisini qariyalar tashkil etganligini hisobga olgan holda sog'likni saqlash xizmatlariga katta e'tiborini qaratdi. Bu sohani yanada mukammallashtirish va aholini xizmatlardan ko'ngli to'lishini, xizmatlardan yoshu-qari birday foydalana olishi uchun uyiga borib xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishdi. Xizmatlar yanada tez va samarali bo'lishi uchun, Yaponiya innovatsion texnologiyalarga sarmoya kiritdi. Ularga; sun'iy intellekt, robototexnika, avtomatlashtirilgan xizmat turlari bo'lib, ular borgan sari rivojlandi va hozirda Yaponiya o'zining robotlashtirilgan tizimlari bilan dunyoga mashhur. Hozirgi kunda Yaponiya-

ning xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotning 70% ini tashkil etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yaponiyaning xizmatlar sohasida o`shish sabablarini T. Ohkawa va H. Rosovsky “Yaponiya itisodining o`shishi” nomli kitobida keltirib o`tgan. Unga ko`ra sanoat modernizatsiyasi bu sohaning o`shishiga hissa qo`shganini aytib o`tgan.<sup>1</sup> Yana bir yaponiyalik olimlardan Fumio Kodama “Innovatsiyaning yangi modellari” asarida Yaponiyaning xizmatlar sohasi texnologik integratsiya va raqamlashtirish orqali rivojlanganligini; moliyaviy xizmatlar, sog`likni saqlash, ta`lim sohasidagi innovatsiyalar diversifikatsiya qilinganligi keltirgan.<sup>2</sup> Kenji Kushida “Yaponiyaning xizmatlar sohasi va uning kelajagi” nomli tahlilida Yaponiya iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar, tibbiy xizmatlar va turizmning roli kattaligini ta`kidlaydi.<sup>3</sup> Shunday fikrni Nobuo Iizuka “Turizm Yaponiya iqtisodining kaliti” nomli maqolasida aytib, unga ko`ra mehmonxona, transport, madaniy xizmatlar, anime, san`at kabi tarmoqlar iqtisodga juda katta foyda olib kelganligini tahlil qilgan.<sup>4</sup>

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda Yaponiya davlati xizmatlar sohasi o`rganilgan, tahlil qilingan, innovatsion usullar orqali taqqoslash, umumlashtirish va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Xizmatlar sohasi davlatning rivojlanishi va asosiy daromad manbai hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda barcha mamalakatlar ushbu soha rivoji va raqobatchilikda kuchli o`rinda bo`lishga intilishadi. Shu jumladan Yaponiya ham xizmatlar sohasida mamlakat ichki mahsulotida katta ulushni egallab, aholisi bandligini ta`minlashda, ichki va tashqi bozor talablarini qondirishda oldingi o`rinlarda turadi. Asosiy tarmoqlar sifatida moliyaviy xizmatlar, sog`likni saqlash, turizm, transport va logistika, madaniy va ijodiy xizmatlar taraqqiy etgan.

1-jadval

#### Yaponiyada asosiy xizmat turlari

Xizmat turlari	YaIMdagi ulushi (%)
Moliyaviy xizmatlar (bank, sug`urta)	24%
Sog`likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	20%
Turizm	14%
Transport va logistika	12%
Madaniy va ijodiy xizmatlar	10%
Ta`lim xizmatlari	8%
Boshqa xizmatlar	12%

1-jadvaldan ko`rinib turibdiki, eng ko`p hissa 24% moliyaviy xizmatlarga to`g`ri keladi, keyingi o`rinda 20% ulush bilan tibbiy xizmatlar, ijtimoiy xizmatlar va turizm 14% ni tashkil etadi.<sup>5</sup>

Yaponiya o`zining tarixiy urf-odatlarini saqlab qolgan bo`lib, shunday an`analardan biri choy marosimidir. An`anaga muvofiq, boy tarixga ega bo`lgan bu marosim aynan shu uchun atalgan tatami polli xonada, ko`k choy tayyorlash va ichish bilan o`tadi. Bu marosimning asosiy maqsadi – har doimgi odatiy hayot tarzidan chetlashgan holda mehmonlarga mehmondorchilikning nozik tomonlarini ko`rsatish, sokin atmosferani yaratish uchun uy egasi tomonidan olib boriladigan marosim hisoblanadi. Unda kimanoning rangi, suvning harorati, faslga, ob-havoga qarab xizmat ko`rsatiladi. Bugungi kunda bu an`anada mehmonlarning o`zlari sinab ko`rishi, ishtirok etishi mumkin. Ushbu marosim milliy bog`lar, madaniy markazlar va mehmonxonalarda ham o`tkazilib, yapon xalqining tarixi, madaniyatini ochib beradi va ko`pchilik mehmonlarda katta qiziqish uyg`otadi.

Yaponiyada bolalar bog`chalari odatiy bog`chalardan ajralib turadi. Ularni

<sup>1</sup> T. Ohkawa va H. Rosovsky “Japanese Economic Growth” (1973) 1-188 pages

<sup>2</sup> Fumio Kodama "Emerging Patterns of Innovation" (1995) Harvard Business School Press

<sup>3</sup> Kenji Kushida "Japan's Services Sector and the Future" (2015)

<sup>4</sup> Nobuo Iizuka "Tourism as a Key Service Industry in Japan" (2018)

<sup>5</sup> World Bank Japan Country Data <https://data.worldbank.org/country/japan>

kichkinaligidan mas’uliyatli bo’lib ulg’ayishi, jamiyatga moslashishga, maktabga tayyor-garlik ko’rishdan tashqari qoidalarga rioya qilishga, o’zi mustaqil bo’lishi va barcha ishlarni qilishga o’rgatishadi. Masalan: o’zidan keyin tozalash, tikish, dazmol qilish, ovqat pishirish, bog’dorchilik, dehqonchilik kabi hayotiy ko’nikmalar shakllantiriladi. Bu esa o’z navbatida mustaqil va intizomni kuchaytirishga qaratilgan metoddir.

Yaponiya o’zining an’anaviy savdo do’konlaridan tashqari elektron tijorati bilan ham mashhur bo’lib, savdo va sanoat vazirligi ma’lumotlariga binoan u chakana savdoning deyarli 10% ni tashkil etadi. (Rakuten, Amazon Japan, Yahoo) Yaponiyada “Konbini” deb ataluvchi do’konlar mashhur bo’lib, u odatdagi do’konlardan farqi 24/7 ochiq bo’lib, keng assortimentda tayyor oziq-ovqatlar, gazaklar, kundalik iste’mol mollarni tavsiya etadi. Bunday do’konlar juda band bo’lganlar va tunda ham iste’mol qilgisi kelganlar uchun ayni muddao hisoblanadi. Hozirda bunday do’konlar mamlakat bo’ylab 57 000 dan ziyod. Shu bilan birgalikda Yaponiya o’zining savdo avtomatlari bilan ham mashhur bo’lib, unda ichimliklar, fast foodlar va yangi mahsulotlarni taklif qiladi. Iste’molchilarni talabini qondiradigan savdo avtomatlari taxminan 5,52 million. Ular sensor ekranli, naqd pulsiz to’lov, yuzni tanish kabilarni o’z ichiga olib 24/7 foydalanish mumkin.

Radiochastotani identifikatsiyalash (RFID) UNIQLO yapon yirik kiyim-kechak sotish tarmog’i dunyoda birinchilardan bo’lib, RFID teglari, RFID oynalari, aravachalari, omborxonada boshqaruvida RFID va o’zini-o’zi tekshiruvchi aqlli qurilmalardan foydalanishni yo’lga qo’ydi. Bu moslama orqali inventarizatsiyani samarali boshqarish, mahsulotni ko’rish, tekshirish jarayonlarini soddalashtirish va operatsion samaradorlikni oshirishga yordam beradi. RFID yorlig’i kiyim o’lchami, rangi, stili haqida ma’lumotlarni beradi va o’z-o’ziga xizmat ko’rsatishni soddalashtirilgan imkonini yaratadi. Haridor harid vaqtida aravachadan foydalangan vaqtda aravacha kiyim narxini ko’rsatadi, RFID oynalari kiyim haqida ma’lumot, ko’rinishini oynada namoyon qiladi, bu esa haridorda kiyim haqida to’liq ma’lumot olish imkonini yaratadi. Olingan haridlarni maxsus ko’rsatilgan joyga qo’yish kerak bo’ladi va ekranda narxlari kelib chiqadi, moslama orqali naqd yoki karta orqali to’langandan keyin oluvchi o’zi paketga solib oladi. Hisobotlarga ko’ra: UNIQLO RFID orqali avtomatlashtirilgan ombor bo’lganidan so’ng, ombor xodimlari soni 100 tadan 10 taga qisqargan va bu mehnat harajatlarini 90%ni tejagan. Ishlab chiqarish samaradorligi 19% oshgan, xodimlarni o’qishiga ketadigan harajat 80% ga qisqargan.

Shunisi ahamiyatliki; tabiatni asrash, u haqida qayg’urish ham doim birinchi o’rinda bo’lib, ekologik toza materiallardan foydalanish, qayta ishlanadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, qadoqlash hajmini minimallashtirish kabilarni targ’ib qilishadi. Ba’zi bir avtomatlar xaridorga foydalanilgan idishlarni qayta ishlash uchun qayta olib kelish, qayta to’ldirilgan idishlardan foydalanganlarida chegirmalar taqdim etishadi bu esa ekologik tashabbuslar uchun doimiy odim hisoblanadi.

Yaponiya axlatni utilizatsiya qilish borasida ham namuna hisoblanadi. Axlat to’rt turga ajratiladi: yonuvchi (oshxona chiqindilari, qog’oz bo’laklari, kiyim-kechak), yonmaydigan (metall, shisha, kulolchilik buyumlari), qayta ishlanadigan (plastik butilkalar, qutilar, gazetalar, konteyner idishlari va katta hajmdagi (mebel, katta hajmdagi ro’zg’or buyumlari). Ko’chalarda deyarli axlat tashlanadigan qutilar ko’rinmaydi, ular asosan uyga olib kelinib, yuvib, tozalanib axlat turiga ko’ra saralanib solinadi va har bir joyda axlatni olib ketuvchilar keladigan kuni ko’chaga olib chiqiladi. Yuvib tozalangan axlatlardan nohush hid chiqmaydi, atrof-muhitni rasvo qilmaydi. Yaponlar bu odatga qattiq rioya qilishadi va bu chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimi samarali va ekologik toza hisoblanadi. Ularni qayta ishlash va energiyaga aylantirish jarayoni orqali global isishga bo’lgan ta’sirni kamaytirishga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Bu borada Yaponiyadan o’rganish kerak bo’lgan tajriba kattadir.

Ko’pgina savdo do’konlari va supermarketlarda noodatiy bo’lgan sotiladigan narsa bu - chiptalar. Konsert, tematik bog’lar, sirk, teatr va muzeylarga chiptalarni harid qilish mumkin. Ular odatda bankomat yonidagi avtomatlashtirilgan kioskalardan olish mumkin. Bu esa harid qilish jarayonida maroqli dam olishga bo’lgan undash va haridorlar uchun ham juda qulay bo’lib, ham vaqt va masofa masalasini hal etadi. Yana shu bilan birga supermarketlarda boshqa xizmat

turlarini ham uchratish mumkin. Ularga: yuk tashish, pochta, nusha ko`chirish kabi xizmat turlari kiradi. Shuningdek do`konlar yuzni tanish, elektron hisob-kitob qilish tizimlari, sun`iy intellekt kabilar bilan jixozlangan. O`z-o`ziga xizmat ko`rsatuvchi do`konlarda qurilmalar orqali tasvirlar, videolar, ma`lumotlar yozib olinadi va har bir mijoz haqida hoxishi, odatlari kabi ma`lumotlarni to`plashi mumkin.

Yaponiya o`zining robotlashtirilgan jarrohlik tizimlari bilan ham mashhur. Bu kabi robot jarrohlari bemorlar uchun xavfning kamligi, operatsiyaning aniqroq amalga oshishiga yordam beradi. Murakkab operatsiya paytida ham samarali ishlash imkonini beradi. Shu kabi robot jarrohlarga “Da Vinci” roboti va “Hinotori” robotlarini misol keltirish mumkin. Da Vinci roboti to`rtta qo`li bor sayyoradagi eng yaxshi robot jarroh deb e`tirof etilgan. Uning to`rtinchi qo`li HD kattalashtiruvchi 3D kamerali bo`lib, u operatsiya paytida bemorni yaqindan ko`rish imkonini beradi. Robot jarrohning uchta qo`li bemor operatsiyasida, to`rtinchi esa tahlil qilishda ishtirok etadi. Shunisi ahamiyatliligi, robot jarroh o`zining tezligini ham nazorat qila oladi va operatsiya jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklarni oldini ham oladi. Yana bir jarrohlik roboti Hinotori jarrohlik roboti 2020-yilda urologik operatsiyalar, 2022-yilda ginekologiya uchun tasdiqlangan.

Yaponiya 2050-yilda yashamoqda deyish mumkin. Yaponiya poytaxti Tokioda odamlar gavjum joylarda vokzal, piyodalar o`tish joyida yerga maxsus plitalar o`rnatishdi. Bu plitalarni bosgan vaqtda kinetik energiyani oladi va uni elektr yoqish sifatida foydalanish imkonini beradi. Bitta bosilgan qadamdan olingan energiya bitta chiroqni bir necha sekund yonishiga xizmat qiladi. Gavjum bo`lgan va odamlar bilan to`la bo`lgan joydagi plitalardan olingan energiya ancha vaqtga yetadi, bu jarayon hali sinovda bo`lib sinovdan o`tsa amaliyotga tatbiq etiladi.

Yaponiyada texnologiyalar rivojlangan bo`lib, bunday namunalarni shaharning barcha qismida uchratish mumkin. Shunday namunalardan biri 3D animatsiya ekrani bo`lib, u shahar markazining odamlar bilan gavjum qismida o`rnatilgan bo`lib, unda har xil hayvonlar va animatsion ko`rinishlar namoyish etiladi. Unda mahsulot reklamasi ham berib boriladi. Bunday animatsion namoyishlar huddi real hayotda ro`y berayotganlik tasavvurini beradi va harakatga mos ravishda ovoz effekti ham qo`shilgan. Animatsion namoyishlar aholida, tashrif buyuruvchilarda katta taassurot uyg`otadi va tomoshabinlar e`tiborini tortadi. Bu kabi animatsiyalarni ko`rish uchun 3D ko`zoynak kerak bo`lmaydi, balki ko`chada bemalol tomosha qilish imkoniyatini beradi. Bu diversifikatsion yechim turistlarni jalb etish va mahsulot sotuvini oshirishga katta hissa qo`shadi.

Yaponiyada tirbandlikni oldini olish, bemalol harakat qilish va joy muammosini oldini oladigan innovatsion yechim ishlab chiqilgan. Unga ko`ra ko`p qavatli mashina qo`yish joylarigagina mashinani qo`yish mumkin. Mashina qoldiriladi va uni qaysi etajda bo`sh joy bo`lsa, lift orqali o`sha etajga joylashtiradi, mashinani olishga kelganda xizmat ko`rsatuvchilar avtomatlashtirilgan tizimlar orqali mashinani egasiga qaytarishadi. Bunday yechim katta yo`lda, ko`chalarda faqat mashinalar qatnovini ta`minlab beradi va hozirgi kundagi katta muammolardan biri bo`lgan yo`llardagi tirbandlik masalasini oldini oladi.

**Xulosa.** Yaponiya xizmatlar sohasini diversifikatsiyalashda asosiy e`tiborni texnologiyalarga va innovatsiyalarni joriy etishga qaratdi. Shu orqali sog`likni saqlash, turizm, moliya va bank sohasining rivojlanishiga erishdi. Yana bir kuchli tarafi shundaki, har qanday o`zgaruvchan bozor va demografik sharoitlarga moslashuvchanligidir, bu esa bozorda qolish va raqobatbardosh bo`lishiga, o`z o`rnini yanada mustahkamlashiga yordam beradi. Yaponiyaning xizmatlar sohasini diversifikatsiyalash va avtomatlashtirish borasidagi tajribasi ko`pgina davlatlar uchun o`rnak bo`la oladi. O`zbekistonda Yaponiyaning “Konbini” deb ataluvchi do`koniga o`xshagan 24/7 ishlab turadigan do`konlarni shahar va odamlar ko`p yashaydigan hududlarda ko`paytirish odamlar og`irini yengil qilish, smenada ishlaydiganlar uchun qulay hisoblanadi. Yana bir tajribadan biri o`zimizda sotuv do`konlarini radiochastotani identifikatsiyalash (RFID) tizimi orqali mukammallashtirish kerak. Bunda navbat kutib qolish, har xil tushunmovchilik kelib chiqishini oldini oladi. Asosiysi vaqtni tejaydi va haridor uchun har tomonlama qulay hisoblanadi. Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi hozirgi kunda global muammolardan

hisoblanadi. Shu kabi muammolarni oldini olish maqsadida qayta ishlanadigan mahsulotlarni topshirishni yoʻlga qoʻyish zarur. Rivojlangan mamlakatlarda bu kabi topshirish punktlari, avtomatlar supermarketlarda, doʻkonlarda boʻlib, qancha mahsulot topshirilishiga qarab pul ham beradi, bu esa odamlarda qayta ishlanadigan mahsulotlarni shunchaki tashlab yubormay toza holatda saqlab topshirishga boʻlgan ishtiyoqni oshiradi. Oʻzbekistonda ham yoʻlga qoʻyish bir qancha muammolarni va atrof-muhitni ifloslanishini oldini oladi.

Yaponiya axlatni utilizatsiya qilish borasida ham namuna ekanligini hisobga olgan holda Oʻzbekistonda ham ushbu usulni qoʻllash lozim. Axlat solinadigan konteynerlarni axlat kategoriyasiga koʻra nomlash, chiqindilarni tozalab keyin kategoriyasi boʻyicha axlat idishlariga tashlash kerak. Chiqindilarga boʻlgan eʼtibor natijasida atrof-muhitga yomon hid chiqishi, zararlanishi, ekologiya ifloslanishining oldini olishning samarali usulidir. Shuningdek hozirgi kunda tirbandlik darajasi yuqorilab borayotgan paytda koʻp qavatli va avtomatlashtirilgan avtorurargohlarni Yaponiya tajribasini oʻrgangan holda qoʻllashni Oʻzbekistonda ham joriy etish yoʻldagi muammolarni hal etadi.

**Takliflar.** Yaponiya xizmatlar sohasini diversifikatsiyalash tajribasini Oʻzbekistonda qoʻllash iqtisodiy rivojlanishga yoʻl ochib beradi. Quyidagilarni qoʻllash xizmatlar sohasining rivojlanishiga yoʻl ochadi:

- 24/7 doʻkonlar ochish;
- Sotuv doʻkonlarida radiochastotani identifikatsiyalash (RFID) tizimini qoʻllashni joriy etish;
- Qayta ishlanadigan mahsulotlarni topshirish avtomatlari va punktlarini yoʻlga qoʻyish;
- Axlatni utilizatsiya qilish masalasiga ahamiyat qaratish, bu borada chiqindilarni kategoriyasi boʻyicha joylash uchun konteynerlar qoʻyish kerak.
- Koʻp qavatli avtomatlashtirilgan avtoturargohlarni qurishni yoʻlga qoʻyish kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ohkawa T. va Rosovsky H. "Japanese Economic Growth" (1973)
2. Fumio Kodama "Emerging Patterns of Innovation" (1995)
3. Kenji Kushida "Japan's Services Sector and the Future" (2015)
4. Nobuo Iizuka "Tourism as a Key Service Industry in Japan" (2018)
5. Takatoshi Ito "The Japanese Economy" (1992)
6. Yaponiya Turizm Tadqiqot Markazi (JTB Tourism Research & Consulting Co.) <https://www.tourism.jp/en/>
7. Ministry of Economy, Trade and Industry of Japan (METI) <https://www.meti.go.jp/english/>
8. World Bank Japan Country Data <https://data.worldbank.org/country/japan>
9. Japan Statistical Yearbook <https://www.stat.go.jp/english/data/nenkan/>

С.Бултакова	S.Bultakova
<b>Японский опыт диверсификации сектора услуг</b>	<b>Japanese experience of diversification of the services sector</b>
<p><b>Аннотация.</b> В статье представлена информация о развитии сферы услуг в Японии и о том, как была достигнута ее диверсификация. Был рассмотрен анализ видов услуг, развивающихся в Японии, включая популярность магазинов «Konbini», систему продаж UNIQLO, внедрение роботизированных хирургических систем в медицину. В статье рассказывается о введении продажи билетов в магазинах и супермаркетах, а также о необычных способах получения энергии.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> чайная церемония, Konbini, электронная коммерция, робот «Да Винчи», робот «Хинотори», финтех-сервисы, автоматизированная парковка</p>	<p><b>Abstract.</b> The article presents information about the development of the service sector in Japan and how its diversification was achieved. An analysis of the types of services developing in Japan was considered, including the popularity of Konbini stores, the UNIQLO sales system, and the introduction of robotic surgical systems in medicine. The article talks about the introduction of ticket sales in shops and supermarkets, as well as unusual ways of obtaining energy.</p> <p><b>Keywords:</b> tea ceremony, Konbini, e-commerce, Da Vinci robot, Hinotori robot, fintech services, automated parking</p>

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84  $\frac{1}{8}$ . “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.